



UDK-636.028.22.04

BROYLER KROSSLARINI KULANGI ZOTLI XO'ROZLAR BILAN CHATISHTIRISH ORQALI AHOLI XONADONLARIDA TOVUQ GO'SHTI YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Davronov Baxtiyor Xasanovich

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

“Parrandachilik va quyonchilik” bo'limi boshlig'i, q.x.f.d (PhD)

Hasanov Humoyun To'ychi o'g'li

Bo'lim tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Ross-308” va “Cobb-500” krosslarining onalik shakli bilan “Kulangi” zotli xo'rozlar chatishtirildi. Tuxumlari inkubatorga ochirilib, Olingan F₁ avlod jo'jalarining o'sish va rivojlanish ko'rsatgichlari o'rganildi va olingan natijalar keltirildi.

Annotation. In this article, Roosters of the “Kulangi” breed were crossbred with the maternal form of the crosses “Ross-308” and “Cobb-500”. The eggs were opened in an incubator, the growth and development indicators of the F₁ generation chicks obtained were studied, and the results obtained were brought.

Kalit so'zlar. Broiler, tuxum, jo'ja, ozuqa, ratsion, kulangi, avlod, xo'roz, o'sish, rivojlanish.

Kirish. Respublikamiz qishloq xo'jaligining chorvachiligida parrandachilik yo'nalishlari alohida o'rin egallab, bu soha xalqimizni qimmatli parhez oziq-ovqat mahsulotlari go'sht, tuxum bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda parrandachilik xalq xo'jaligi uchun momiq patlar yetkazib beradi. Parrandalar boshqa qishloq xo'jalik hayvonlariga nisbatan o'zlarining tez yetiluvchanligi va dietik mahsulotlar berishi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda respublika aholisi va turli ishbilarmonlar, xo'jaliklar doirasida parrandachilik sohasi shiddat bilan rivojlanmoqda. Chorvachilikda bu yo'nalishni yanada rivojlantirish, ularning mahsuldorligini genetik imkoniyatlari darajasiga olib chiqish orqali parrandachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirish muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi. Buning uchun esa bu sohalarda mustahkam ozuqa bazasini yaratish, ular genlarining aniq tasniflariga ega bo'lish, turli davrlarda oziqlantirishni ilmiy asosda respublikaning turli xududlari uchun to'g'ri tashkil etib borish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.



2021 yil boshiga kelib respublikada yiliga 90 mln boshga yaqin parrandalar boqilib, uning 13 % fermer xo‘jaliklarida, 31 % maxsus ixtisoslashgan parrandachilik xo‘jaliklarda, 56 % dexqon va axoli shaxsiy yordamchi xo‘jaliklarda parvarish qilinmoqda. Barcha parrandalar bosh soni orasida tovuqlarning ulushi 46,2-49 %-ni tashkil etmoqda.

Parrandalar go‘shiti inson xayotida eng zarur mahsulotlarning biri hisoblanadi va unda inson sog‘lig‘i uchun o‘ta zarur to‘laqonli oqsillar, yog‘lar, mineral va vitaminlar, biologik faol moddalar mavjud.

Parranda go‘shiti o‘zining yuqori to‘yimliligi, parhezboqligi va yaxshi ta‘m sifati bilan inson ratsionida o‘z o‘rniga ega. Parranda go‘shitida oqsil moddasi miqdori cho‘chqa va qo‘y go‘shitiga to‘g‘ri keladi, ammo uning oqsilini tashkillashtiruvchi “almashtirilmaydigan aminokislotalar” chorva-mollari go‘shitiga nisbatan ko‘pdir. Bundan tashqari parranda yog‘i o‘ta to‘yimli bo‘lib undagi olein kislotalari sterin kislotalariga nisbatan ko‘pdir.

Tadqiqotning maqsadi: O‘zbekiston sharoitida broyler parrandalarning tana og‘irligini ko‘tara oladigan tayanch–harakat tizimini mustahkamlash maqsadida Ross-308 va Kobb-500 kross broyler tovuqlarni mahalliy kulangi (dakang) zotli xo‘rozlar bilan chatishtirish va ikki xil krossdan olingan F_1 avlod jo‘jalarini taqqoslab o‘rganish orqali ular orasidan eng maqbulini tanlab olish hamda mahalliy sharoitga moslashgan, tez yetiluvchan, og‘ir vaznlarini ko‘tara oladigan duragay broyler tovuqlar galasini yaratish, ularning o‘sishi va rivojlanishini, go‘shit mahsuldorligini o‘rganish.

Tadqiqot o‘tqazish joyi va uslubi.

Tadqiqot o‘tkazish joyi. Tadqiqotlarning birinchi bosqichi Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba xo‘jaligida chetdan keltirilgan Ross-308 va Kobb-500 kross broyler tovuqlarni mahalliy kulangi (dakang) zotli xo‘rozlar bilan chatishtirish va ikki xil krossdan olingan birinchi avlod jo‘jalarini taqqoslab o‘rganish orqali ular orasidan eng maqbulini tanlab olish hamda mahalliy sharoitga moslashgan, tez yetiluvchan, og‘ir vaznlarini ko‘tara oladigan duragay broyler tovuqlar galasini yaratish, ularning o‘sishi va rivojlanishini, go‘shit mahsuldorligini o‘rganish tajribalari o‘tkazildi.

Tadqiqotlarning bajarish uslublari

Tajriba o‘tkazish zootexniya fanida qabul qilingan usullarda amalga oshirildi:
-broyler tovuqlarning tirik vazni ularni har birini alohida tarozida tortish orqali aniqlandi;
-tovuqlarning tana qismlari o‘lchov lentasi yordamida o‘lchab olindi;



-broyler tovuqlar va xo‘rozlarning go‘sht mahsuldorligi so‘yim chiqimiga qarab aniqlanadi;

- tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi har bir parrandaga sarflangan harajatlar va undan olingan mahsulotning qiymatini aniqlash orqali o‘rganiladi;

-tajriba davomida olingan ma‘lumotlarga biometrik ishlov berib borish orqali Ye.K.Merkureva (1970) uslubi bo‘yicha hisoblab chiqiladi.

Tadqiqotlar broyler tovuqlar va xo‘rozlar hamda mahalliy dakang zotli xo‘rozlardan chatishtirishda foydalanib quyidagi tajriba tasviriga asosan amalga oshirilmoqda.

Olingan natijalar. Tajribalar guruhini shakillantirishda avval tajribalarni o‘tqazish uchun parrandalarni parvarishlash uchun joy tayyorladik. Birinchi navbatda xo‘rozlarning etiologiyasidan kelib chiqib, oldindan tayyorlangan joyga birinchi xo‘rozlarni qo‘yib yuborib, xo‘rozlar o‘z uyiga o‘zini yaxshi his qilgandan so‘ng, tovuqlarni qo‘shdik. Birinchi tajriba guruhi “Ross-308” va ikkinchi tajriba guruhi “Cobb-500” broiler krosslarining onalik shakillaridan 30 boshdan qilib ajratib har bir guruhga “Dakang” zotli xo‘rozlarni 10:1 nisbatda qo‘shdik. Har 10 bosh tovuq va 1 bosh xo‘rozni alohida alohida kataklarga saqladik. Ushbu tajriba guruhidagi parrandalar bir xilda oziqlantirildi va ozuqalarni boyitilgan, to‘la qiymatli aralsh ozuqalardan tayyorlandi. 1-jadval.

1-jadval

Tajriba guruhlarining ota ona formalarini oziqlantirish ratsioni.

№	Ozuqa turlari	%
1	Maka jo‘xori	31,3
2	Bug‘doy	33
3	Soya	10
4	Kepak	3,82
5	Pista shroti	4
6	Beda uni	2,55
7	Yog‘	1,2
8	Oxak	9,04
9	Arpa	4,04
10	Monokalsiy fosfat	0,5
11	Primiks	0,15
12	Chayni soda	0,05



13	Tosh tuzi	0,35
Jami		100 %

Ushbu ratsion tarkibi oqsilning ulushi 18 % ni tashkil qilib har bir bosh tovuq uchun 170 g ozuqani ikkiga bo'lib ikki mahal oziqlantirildi.

Tajribalar davomida tovuqlardan 7 kundan so'ng urug'langan tuxumlar olinib, inkubatorga ochirish uchun yig'ildi. Yig'ilgan tuxumlar tanlash va saralashdan o'tqazilib, inkubatorga yaroqsiz tuxumlar ajratildi. Yaroqlilari 5 kun davomida 12 °C saqlangandan so'ng, tuxumlar inkubatorga qo'yildi. Inkubatsiyabop tuxumlarni ochirishda "Egg box" rusumli avtomatik inkubatoridan foydalanildi. 1-tajriba guruxida ochib chiqish 86 % ni, 2-tajriba guruhida 81 % ko'rsatgich bilan jo'jalarimiz tuxumlardan chiqdi.

Tajribadagi jo'jalarni parvarishlash: Jo'ja o'stirishning dastlabki kunlarida barcha kiruvchi va chiquvchi shamollatish tuynuklari bekitildi, shamollatgichlar ishlatilmadi. Bino ichi harorati va havosining chiqindi gazlar bilan ifloslanish darajasiga qarab 7-10 kundan so'ng shamollatkichlar asta sekin ishga tushirildi. Bunda yelvizak (skvoznyak) bo'lmasligi, binonin ichki harorati o'ta sovib ketmasligi taminlandi.

Jo'jalarga berilayotgan ozuqa va suvning harorati bino ichi harorati darajasida, qafas ichidagi harorat esa 33-34° C atrofida saqlandi.

Jo'jalarni joylashtirish oldidan har bir qafasning ostki panjasiga 5 varoq (20x30 sm) qog'ozni birini ikkinchisini ustiga qo'yib taxlanadi. Qafas ichidagi nepelli sug'orgich yoniga iliq suvli sug'orgich ham o'rnatilishi lozim.

Xonada joylashtirilgan jo'jalarga dastavval suv, undan 2-3 soatdan keyin ozuqa beriladi, chunki shunda embrional rivojlanish davomida jo'ja organizmida yig'ilib qolgan siydik kislotasini tashqariga chiqarib ulguradi.

2-jadval

Tajribadagi jo'jalarni parvarishlashda mikroiklim ko'rsatgichlari

Jo'jalar yoshi, kunlarida	Harorat, °C	Namlik, %	Xavo almashinuvi, m ³ kg	
1-2	33-35	60-70	0,1-0,2	0,1-0,2
3-4	31	60-70	0,1-0,2	0,1-0,2
5-7	30	60-70	0,1-0,2	0,1-0,2



8-14	29	60-70	0,8-1,0	0,8-1,0
15-25	28	60-70	0,8-1,0	5
22-28	22	60-70	0,8-1,0	5
5-7 haftalik	18-20	60-70	0,8-1,0	5
8-20 haftalik	18-20	60-70	0,8-1,0	5
20 haftalikdan katta	18-20	60-70	0,8-1,0	5

Ushbu jadvalda ko'rish mumkinki jo'jalarning yoshi kattalashgan sari xona haroratining tushib borishini kuzatish mumkin va bu ko'rsatkichni qish mavsumida 18 °C dan 16 °C haroratgacha tushirish mumkin.

Jo'jalarni parvarishlash davomida o'sish ko'rsatkichlari har hafta bir marotabadan elektron tarozida tana vazni o'lchab borildi va olingan natijalar 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

Tajribadagi yosh jo'jalarni o'rtacha o'sish ko'rsatkichlarining biometrik tahlili

I-tajriba guruhi (Ross-308)					II-tajriba guruhi (Cobb-500)			
Yoshi hafta	tirik vazni	kunlik o'sish	mutloq o'sish	nisbiy o'sish	tirik vazni	kunlik o'sish	mutloq o'sish	nisbiy o'sish
1-kun	51,25±4,2	0	0	0	52,25±3,2	0	0	0
1-hafta	120,5±11,5	9,8929	69,25	135,1	110,5±9,6	8,3214	58,25	111,483
2-hafta	290,8±24,6	24,329	170,3	141,3	274,8±21,6	23,471	164,3	148,688
3-hafta	420,6±35.0	18,543	129,8	44,64	395,2±29,9	17,2	120,4	43,813
4-hafta	560,2±41.0	20,114	140,8	18,53	536,9±29,9	20,2	141,7	54,567
5-hafta	780,7±35.0	31,471	220,3	15,14	725,2±29,9	26,9	188,8	57,476



Ushbu jadvalda ko'rish mumkinki 1-tajriba guruhimizdagi jo'jalar 2-tajriba guruhimizga nisbatan 55,5 g ga ko'proq o'sib, 2-tajriba guruhiga nisbatan 1-tajriba guruhidan olingan F_1 avlod jo'jalarimiz ustunlikka erishganini ko'rish mumkin.

Xulosalar

1. Olingan F_1 avlod jo'jalarimiz aholi xonadonlariga tez moslashuvchan, immuneteting yuqoriligi, tana vaznining tez o'sishi va onasiga nisbatan chaqqon harakatlanishi oyoq bolder suyaklarining yaxshi rivojlanganligi bilan ajralib turdi.

2. Tajribalardan olingan F_1 avlod jo'jalari biometrik tahlil qilinganda 5 hafta davomida birinchi tajriba guruhi ikkinchi tajriba guruhiga nisbatan 55,5 g ga tezroq o'sib, o'z ustunligini ko'rsatdi.

3. Olingan F_1 avlodlarni oqsilli ozuqalar bilan oziqlantirish yosh jo'jalarni tezroq yetilishiga sabab bo'la oladi.

4. Jo'jalarni parvarishlashda veterinariya-sanitariya qoidalariga amal qilish parrandalarinigiz sog'ligi garovi bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Антонова В.С. др. Методология научных исследований в животноводстве. Оренбург, 2011 г. 240 стр.
2. Епимаханова Е.Э., Закотин В.Е., Скропкин В. С. Селекция и разведение сельскохозяйственной птицы. Ставрополь, 2015 г. Стр.6-37
3. Зыков С. А. Современные тенденции развития птицеводства. в. ж. Эффективное животноводство. №4 2019 г. Стр.31-52.
4. Карибаев К.К., Аширов М.И., Карибаева Д.К. Ўзбекистондаги асосий озуқаларнинг тўйимлилик қиймати бўйича қисқача билдиргич. Тошкент-2000.
5. Наумова В. В. Птицеводства . Ульяновск, ГСХА, 2008, 260 с.
6. Юлдашев.Д.Қ., Давронов.Б.Х., Предельные границы роста живого веса бройлеров в условиях Узбекистана., The XXXIII International Scientific Symposium., "DIALOGUE OF SCIENCES AND CULTURES IN THE MODERN WORLD" The 24th of December 2022 Bishkek/ Kyrgyzstan. 253-255 с.
7. WWW.waterkeeper.org